



Ravshan ABDUZOHIROV,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: abduzohirov_r@nuu.uz
Marjona BO'RIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti talabasi
E-mail: marjonaboriyeva212@gmail.com

O'zRFA Tarix instituti professori, t.f.d. A.Ashirov taqrizi asosida

THE LIFE OF THE FOOTHILL VILLAGES OF FORISH DISTRICT IN THE PAST AND PRESENT

Annotation

This article analyzes the archaeological, ethnographic, and historical aspects of Forish District. The study examines the history of the formation of Porasht (Eski Forish) village, the Sukhchi Abdullo fortress, the Chashmai-Doston area, and archaeological findings from the Middle Paleolithic period. Additionally, the ethnic composition, traditional way of life, and migration processes of Forish and its surrounding villages are analyzed. The article explores the ecotourism potential of the Forish region, particularly the tourism infrastructure in the villages of Uxum and Mojrum, emphasizing their importance as key sites for historical-ethnographic and ecological tourism. The development of trade centers in the foothills of the Nurata Mountains in the 19th-20th centuries and the significance of the Sintob market are highlighted. Furthermore, the cultural and linguistic characteristics of the Nurata oasis, the phenomenon of bilingualism, and the tradition of intergenerational cohabitation are discussed. The research findings are significant for studying the cultural heritage and tourism potential of Forish District, providing a broader perspective on the historical and geographical features of the region.

Key words: Forish, Sintob market, Nurata Mountains, Uxum, archaeology, ethnography, expedition, tourism, culture.

ЖИЗНЬ ПРЕДГОРНЫХ ДЕРЕВЕНЬ ФАРИШСКОГО РАЙОНА В ПРОШЛОМ И НАСТОЯЩЕМ

Аннотация

В данной статье анализируются археологические, этнографические и исторические аспекты Фаришского района. В ходе исследования рассматривается история формирования села Порашт (Старый Фариш), крепости Сухчи Абдулло, местности Чашмай-Достон, а также археологические находки среднего палеолита. Кроме того, анализируется этнический состав, традиционный уклад жизни и миграционные процессы в Фарише и его окрестных селениях. В статье изучается потенциал экотуризма в регионе Фариш, в частности, туристическая инфраструктура сел Ухум и Моджрум, подчеркивается их важность как значимых объектов историко-этнографического и экологического туризма. Освещается развитие торговых центров у подножия гор Нуратинского хребта в XIX–XX веках и значение рынка Синтоб. Также рассматриваются культурные и лингвистические особенности Нуратинского оазиса, феномен билингвизма и традиция совместного проживания разных поколений. Результаты исследования имеют важное значение для изучения культурного наследия и туристического потенциала Фаришского района, позволяя шире осветить его историко-географические особенности.

Ключевые слова: Фариш, рынок Синтоб, Нуратинские горы, Ухум, археология, этнография, экспедиция, туризм, культура.

FORISH TUMANI TOG'OLDI QISHLOQLARI HAYOTI O'TMISHDA VA HOZIRDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Forish tumanining arxeologik, etnografik va tarixiy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Porasht (Eski Forish) qishlog'ining shakllanish tarixi, Suxchi Abdullo qo'rg'oni, Chashmai-Doston atrofi va o'rta paleolit davriga oid arxeologik topilmalar o'rganiladi. Shuningdek, Forish va uning atrofidagi qishloqlarning etnik tarkibi, an'anaviy turmush tarzi va migratsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Maqolada Forish hududidagi ekoturizm imkoniyatlari, xususan, Uxum va Mojrum qishloqlaridagi turizm infratuzilmasi o'rganilib, bu joylarning tarixiy-etnografik va ekologik turizm uchun muhim maskan ekani ta'kidlanadi. XIX-XX asrlarda Nurota tog'lari etaklaridagi savdo markazlarining rivojlanishi va Sintob bozorining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, Nurota vohasining madaniy va lingvistik xususiyatlari, ikki tillilik fenomeni va avlodlararo yashash an'anasi haqida ma'lumot beriladi. Tadqiqot natijalari Forish tumanining madaniy merosi va turizm salohiyatini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etib, hududning tarixiy-geografik xususiyatlarini kengroq yoritish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Forish, Sintob bozori, Nurota tog'lari, Uxum, arxeologiya, etnografiya, ekspeditsiya, turizm, madaniyat.

Kirish. Turkiston tizmasining shimoli-g'arbiy tarmog'ini tashkil qilgan Nurota tog'lari O'zbekistondagi Navoiy, Samarqand, Jizzax viloyatlarining bir necha qismlarini o'z ichiga oladi. Miloddan avvalgi VII-VI asrlarda So'g'd davlati tarkibida bo'lgan ushbu hudud ko'p asrlik tarix davomida ko'plab qabila va elatlarning yashash joyiga aylangan. Ayniqsa, Porasht, Mojrum, Uxum va Asraf qishloqlarining shakllanish tarixi, etnik tarkibi va rivojlanish jarayonlari ilmiy jihatdan bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Biroq, mazkur qishloqlarning tarixiy va madaniy o'ziga xosliklarini o'rganish hali ham to'liq amalga oshirilmagan bo'lib, ushbu masala tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari Nurota vohasi haqida dastlabki ma'lumotlarni beradi. Shuningdek, B.X. Karmisheva tomonidan olib borilgan tadqiqotlar Nurota tog'lari etagidagi tog'oldi qishloqlarining shakllanishi va keyingi migratsiyalarni

yoritishda muhim manba hisoblanadi. Ammo mavjud ilmiy adabiyotlar Nurota etaklaridagi tog'oldi qishloqlari aholisining tarixiy shakllanish jarayonlari hamda mahalliy aholining kelib chiqishi masalasini batafsil yoritmaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi Nurota vohasidagi qishloqlarining tarixiy shakllanishi va etnik tarkibini ilmiy manbalar hamda mahalliy ma'lumotlar asosida yoritib berishdir. Shu bilan birga, maqola quyidagi vazifalarni amalga oshirishni maqsad qiladi: 1) Qishloqlarning tarixiy rivojlanishini aniqlash;

Mahalliy aholining kelib chiqishini tahlil qilish;

Tabiiy va ijtimoiy omillarning hudud rivojlanishiga ta'sirini baholash.

Metodlar. Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-tahliliy, etnografik so'rovlar, kartografik, statistik va demografik, taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tarixiy-tahliliy metodni qo'llash tarixiy manbalar orqali qishloqlarning tarixiy shakllanish jarayonlari o'rganildi va tahlil qilindi. Etnografik so'rovlar hududdagi mahalliy aholining kelib chiqishi va turmush tarzini yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Hududning geografik o'rni, qishloqlarning joylashuv ketma-ketligi va migratsiya yo'nalishlarini aniqlash maqsadida kartografik ma'lumotlar o'rganildi. Hudud aholisining etnik tarkibi va aholi demografiyasini o'rganish uchun arxiv hujjatlari va zamonaviy statistik ma'lumotlardan foydalanildi.

Adabiyotlar tahlili. Forish tumani va Nurota vohasining tarixiy-madaniy merosi hamda turizm salohiyatini o'rganishda turli adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tarixiy manbalar, ilmiy maqolalar va etnografik tadqiqotlar asos qilib olindi. Xususan, A.A.Ashirov, A.D.Bababekov, Komilova va Usmonovlar tadqiqotlari, B.Karmesheva va E.Peshchereva asarlari, Z.T.Togayev, L.I.Rempel, T.O.Salimov va boshqa tadqiqotchilar asarlari va ilmiy izlanishlarda o'rganilayotgan hudud haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Muhokama va natija. 2021-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, Jizzax viloyatida jami 427ta madaniy meros obyekti davlat muhofazasiga olingan. Ularning 100 tasi tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, 268 tasi arxeologik yodgorliklar, 59 tasi monumental san'at asarlari bo'lib, shuningdek, 30 tasi diqqatga sazovor joylar sifatida qayd etilgan[3].

Nurota vohasi hududi miloddan avvalgi VII-VI asrlarda So'g'd davlati tarkibiga kirgan. Nurota haqida birinchi ma'lumotni Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida keltirgan. Narshaxiyning fikricha, o'rta asrlarda Nurotada nisbatan ko'p sonli aholi najmon, o'zbek-turkman, qipchoq, urganch, mirishkor, qang'li, saroy, mang'it, yuz, jaloyir, burqut, bahrin, jodir, toma, to'z, baroq va boshqa qabilalardan tashkil topgan edi[5]. Shu bilan birga, boshqa etnik guruhlar – tojiklar, qozoqlar, arablar, qisman afg'onlar asosan Nurotadagi Sintob, Porasht, Uxum qishloqlarida va Kattaqo'rg'on tumani atrofida yashaganlar[9]. Hozirgi vaqtda Nurota tog' tizmalari etaklarida joylashgan Porasht, Arsaf, Uxum, Andagin, Mojrum, Sentob, Sop, Katta va Kichik Ej qishloqlarida yashovchi aholining katta qismini tojiklar tashkil qiladi.

2023-2024-yillarning may-iyun oylarida O'zbekiston Milliy universiteti "Antropologiya va etnologiya" kafedrasining bir guruh professor-o'qituvchilari va 2-kurs talabalari bilan o'tkazilgan ilmiy ekspeditsiya va talabalari amaliyoti davomida to'plangan ma'lumotlarga ko'ra, Porasht qishlog'i ayrim manbalarda Forish yoki Eski Forish nomi bilan yuritilgan. Uning aholisi Qishloqi (Qung'ur), Ko'lmaki, Qoravulbegi va Maxmat-zamoni avlodlaridan tashkil topgan. Qishloqda 185 ta xo'jalik mavjud bo'lib, 1600 aholi istiqomat qiladi.

Nurota tog' tizmalariga tegishli Novmaste qoyatosh suratlari Eski Forish qishlog'ining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan. Ushbu suratlar tepa qismida, tog' tomonida Chashmai-Doston nomli buloq joylashgan. Buloqning janubiy tomonida 100x50 metr hajmli tekis maydon mavjud. Bu yerda olib borilgan qazishma ishlari davomida loysimon toshlar aralashgan o'rta paleolit davriga oid qatlamlar topilgan. Levallua va prizmaga o'xshash o'zaklarning mavjudligi bu joydagi topilmalarni bir tomondan Samarqanddagi o'rta paleolit madaniyatiga, ikkinchi tomondan Toshkent vohasi paleolit davri madaniyatiga yaqinlashtiradi[8]. Bu esa hududning qadimdan aholi yashash markazlaridan biri ekanligini bildiradi. Aholi tomonidan bu hudud Soyi Bolo (forscha, tepadagi soy) deb nomlanib keladi. 1938-yilda tug'ilgan Tursunmurodov Shaharboy ota va aholi vakillaridan yig'ilgan ma'lumotlar asosida Arsaf qishlog'i mahalliy urug'larining kelib chiqishi tarixini quyidagicha keltirish mumkin. Bo'stonliq tumanidan kelgan Odinaboy qushchi Arsaf qishlog'ida qush ovlab yurgan kezlari bu joy unga yoqib qoladi. Keyinchalik Asraflik qiz bilan turmush quradi. Ular 3 o'g'il ko'radi: Nazar, Shonazar va Odinaboy. Hozirgi mahalliy aholi o'zlarini shu aka-ukalarning avlodi deb hisoblashadi[12].

B.X.Karmesheva tomonidan qoldirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1930-yillargacha Nurota vohasida o'n beshga yaqin tojik qishloqlari bo'lgan. XIX asrning 50-60-yillarida cho'l yerlarini o'zlashtirish boshlangach, tojiklarning ko'p qismi yangi yerlarga ko'chib ketgan, ammo Porasht, Uxum, Sentob, Ej va Keskan qishloqlarining aholisi Nurota tizmasining shimoli-sharqiy

yonbag'irlarida yashashda davom etgan[4]. So'nggi yillarda Nurota tog'ining baland nuqtalarida yashovchi aholining tog'ning past qismlariga ko'chishi kuzatilmoqda. Jumladan, Ej qishlog'i tarkibiga kiruvchi Keskan hududida aholi deyarli yashamaydi. Andagin qishlog'ining aholisi esa borgan sari ko'payib bormoqda.

Forishda bugungi kunda turizm sohasi tez rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Tumanning so'lim tabiati, toza havosi, zilol suvlari va mehmondo'st aholisi turistlarni o'ziga keng jalb qilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, etnografik dala tadqiqotlari davomida Forish tumanining Uxum mahallasida joylashgan xushmanzara Hayot qishlog'ida 3 ta xostel va 11 ta oilaviy mehmon uyi ekoturizm maqsadida kelgan mehmonlarga xizmat ko'rsatayotgani kuzatildi[1]. Uxum qishlog'i 3 qismdan Pastki Uxum, O'rta Uxum va Yuqori Uxumdan iborat. Yuqori Uxum o'zining xushmanzara joylari, petrogliflari hamda musaffo havosi bilan boshqa joylardan ajralib turadi.

Forish tumani Do'stlik turizm mahallasi tarkibidagi Mojrum qishlog'i Navoiy viloyati Nurota tumani bilan chegaradosh eng chekka hudud hisoblanadi. Mojrum qishlog'i Jizzax shahridan 121 km masofada joylashgan va tog' yonbag'ridagi betakror manzarasi, salqin iqlimi hamda so'lim tabiati bilan ajralib turadi. Bu hudud nafaqat ziyoratchilar, balki tog' havosidan bahramand bo'lishni istaydigan sayyohlar va dam oluvchilar uchun ham sevimli maskan hisoblanadi. Mojrum nomining kelib chiqishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Mahalliy aholi ta'kidlashicha, bu nom "mojaroli" (janjalkash, kelishmovchi), "mojam" (birga, jipslashgan) yoki "muhojir" (boshqa hududlardan ko'chib kelgan) kabi ma'nolarni anglatadi. Qishloq aholisi asosan Halaj, Sayf, Quruqsoy, Sintob va Sultonli kabi tojik urug'lariga mansub bo'lib, ular tojik va o'zbek tillarida so'zlashadi. Mojrum qishlog'ida 2500 yillik "Mojrum archasi" va "Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohi" alohida e'tiborga loyiq maskandir. Ushbu obyektlar ekologik hamda tarixiy-etnografik turizm uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Mojrum archasi o'zining biologik qadriyatlarini bilan ham ilmiy va sayyohlik jihatdan qimmatli hisoblanadi[2]. Bu maskanga boruvchi sayyohlar hududning tabiati va o'ziga xos qadamlari, an'anaviy turmush tarzidan hayratlanib, o'zgacha zavq olib qaytishadi.

O'zbekiston Milliy universiteti tomonidan Jizzax viloyatida "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi" asosida Forish tumani turistik salohiyatini oshirish" nomli amaliy loyiha bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Tarix fakulteti Arxeologiya va etnologiya kafedrasida professor-o'qituvchilari 2024-yil avgust-noyabr oylarida Forish tumanining Uxum, Mojrum, Garasha, Osmonsoy, Uchquloq, Andagin, Egizbuloq, Qoratosh kabi qishloqlarini o'rganib, ularning tarixiy-etnografik salohiyatini aniqlashdi. Ayniqsa, Mojrum qishlog'ida tarixiy va etnografik merosning yaxshi saqlanib qolganligi qayd etildi. Bu yerda yashovchi turli etnik guruhlar asrlar davomida shakllangan an'anaviy turmush tarzini bugungi kungacha davom ettirib kelmoqda. Ushbu merosni asrab-avaylash va targ'ib qilish maqsadida Mojrum qishlog'ida "ochiq osmon ostidagi muzey" tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Mojrum qishlog'ini etnografik turizm markaziga aylantirish rejalari asosida maxsus turpaketlar ishlab chiqilib, tarixiy-madaniy joylarga sayyohlik yo'nalishlarini yo'lga qo'yish ko'zda tutilmoqda[11]. Hududda ekoturizmni rivojlantirish orqali aholi ish bilan ta'minlanishi ko'zda tutilgan.

XIX asr oxirida Nurota vohasining shimoliy-sharqidagi qishloqlar Uchma, Sof, Eski Forish, Safarota, Uxum, Qizilqum va Sintobda bozorlar paydo bo'lgan. Bu joylarda dehqonchilik mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari va chorva mollari sotilgan. Bozorlar mahalliy aholi uchun katta ahamiyatga ega bo'lib, odamlar o'z mahsulotlarini kerakli narsalarga ayiriboshlaganlar. XX-asr boshiga kelib, Sintob bozori savdo markaziga aylangan. Savdo har payshanba kuni bo'lgan va asosan ayiriboshlash orqali amalga oshirilgan[7]. Lekin hozirda Sintob bozori faoliyat yuritmaydi. Bu turdagi bozorlar faqatgina Qizilqum, Birlashgan, Eski Forish, Safarota, Uchma va Osmonsoyda saqlanib qolgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'ttmishda Nurota tog' tizmasining shimoliy yon bag'ri O'rta Osiyoning boshqa hududlari kabi xalqaro savdo yo'llari bilan bog'langan. Hatto bu hudud orqali Buxoro va Shoshni (Toshkentni) bog'lovchi Ipak yo'lining bir

tarmog'i o'tgan bo'lishi mumkinligi taxmin qilinadi[6]. Bu kabi ma'lumotlar hududning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Sintob, Forish, Karnab kabi qishloqlarda yashovchi tojiklar asosan chorvachilik va qo'ychilik bilan shug'ullangan. Uylari loy va o'simlik poyalari aralashmasidan qurilgan bo'lib, uylarning ko'rinishidan egasining ijtimoiy mavqeini bilish mumkin edi. Farovon oilalar chorva saqlash uchun alohida qo'ralar qurishgan.

Nurota vohasida yashovchi tojiklar ona tillari bilan birga o'zbek tilida ham so'zlashgan. Bu ikki til birgalikda ishlatilgani tufayli, vohaning Keskan, Eski Forish, Sob, Katta va Kichik Ej kabi qishloqlarida ikki tilli madaniyat shakllangan. Vohada ko'p avlodli oilalarda yashash odati uzoq vaqt saqlanib qolgan. Odatda, 3-4 avlod bir katta boboning boshchiligida bir hovlida yoki yonma-yon joylashgan uylarda yashagan. Qarindoshlar soni ba'zan 50-60 kishiga yetgan va ular orasida devor yoki darvoza bo'lmagan. Ammo XX-asr boshiga kelib, oilalar alohida uylar qurib, mahallalarda yashay boshlashgan[10]. Ushbu hududlardagi madaniy o'ziga xoslik nafaqat turmush tarzida, balki me'moriy an'analarda ham namoyon bo'ladi. Ko'p avlodli oilalarning bir hovlida yashashi o'zaro hurmat, birdamlik va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Kelajakda ushbu hududlarning tarixiy-madaniy merosini chuqur o'rganish va targ'ib qilish orqali ularning turizm va ilmiy tadqiqotlar nuqtayi nazaridan ham ahamiyati oshishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Forish tumanining tabiiy resurslari, tarixiy merosi va madaniy qadriyatlari ekologik va tarixiy turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Uxum va Mojrum qishloqlari, o'zining boy tarixiy merosi va tabiiy go'zalligi bilan, turistlar uchun jozibador bo'lib, ular turizm sohasida katta salohiyatga ega. Ayniqsa, Mojrum qishlog'idagi "Ming yillik archa" va Hazrati Zaynulobiddin ziyoratgohi kabi obidalar ekologik va tarixiy turizm uchun muhim resurs hisoblanadi. Forish tumani tabiati va etnografik merosi, mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzi nafaqat o'zbek xalqi, balki

xalqaro sayyohlar uchun ham qiziqarli hisoblanadi. Ayniqsa, tabiati, qadimiy hunarmandchilik turlari, folklor marosimlari va me'moriy obidalar sayyohlarni o'ziga jalb qilishi aniq. Bugungi kunda ko'plab sayyohlar shunchaki yodgorliklarni tomosha qilish emas, balki madaniyatni his qilish, an'anaviy hayot tarzini boshdan kechirishni xohlashadi. Mojrum qishlog'i aynan shunday tajribani taqdim etishi mumkin. Hududda turizm rivojlangan sari yangi ish o'rinlari paydo bo'ladi, hunarmandchilik yanada jonlanadi va yosh avlod o'z ajdodlarining qadimiy an'alarini davom ettirishga qiziqib qoladi. Shu sababli, Mojrum qishlog'ida ochiq osmon ostidagi muzeyni tashkil etish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki kelajak avlod uchun ham katta foyda keltirishi shubhasiz.

Takliflar: 1. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish: Forish tumanidagi ekoturizm va tarixiy turizmni rivojlantirishda mehmon uylari va xostellar sonini ko'paytirish, transport va infrastruktura tizimlarini yaxshilash zarur. Ayniqsa, Mojrum qishlog'idagi diqqatga sazovor joylar va tabiatni saqlab qolgan holda, ekologik turizmni rivojlantirishni davom ettirish kerak.

2. Madaniy va tarixiy merosni saqlash: Forish tumanidagi qadimiy arxeologik va tarixiy obidalarni saqlash, ular ustida tadqiqotlar olib borish zarur. Xususan, Mojrum va Uxumdagi tarixiy joylarni himoya qilish va ularga e'tibor qaratish, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan joylarni sayyohlar uchun jozibador qilish muhim.

3. Mahalliy aholi bilan hamkorlik: Mahalliy aholi bilan hamkorlik qilib, turizm sohasida yangi ish o'rinlari yaratish, ularni ekologik turizm va tarixiy merosni saqlash sohalarida ta'lim va kasb-kor bilan ta'minlash kerak.

4. Turizmni ilmiy tadqiqotlar bilan birlashtirish: Forish tumani qishloqlarini tarixiy, arxeologik va etnografik tadqiqotlar o'tkazish orqali turizm samaradorligini oshirish.

5. Hududni tanitish va jozibador qilish: Forish tumanini milliy va xalqaro sayyohlar orasida tanitish, uning tabiiy va madaniy merosini keng jamoatchilikka tanishtirish uchun reklama va targ'ibot ishlarini kuchaytirish kerak.

ADABIYOTLAR

1. Ashirov A.A., "Jizzax vohasida eko va ziyorat turizmni rivojlantirish bo'yicha ayrim mulohazalar". "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari": xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar to'plami. – Toshkent: Universitet, 2024. – 131 b.
2. Bababekov A.D., "Forish tumanining tarixiy-etnografik turizm resurslari va salohiyati". "Tarixiy obyektlar va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida O'zbekistonning turistik salohiyatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va istiqbollari": xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasidagi maqolalar to'plami. – Toshkent: Universitet, 2024. – 515 b.
3. Комилова Н.К., Усманов М.Р., "Жиззах вилоятида туристик дестинацияларни ташкил этишининг худудий жиҳатлари". Жиззах, 2023. – Б. 50.
4. Кармышева Б., Пещерева Е. "Материалы этнографического исследования таджиков Нуратинского хребта". "ЭО", № 1, 1964.
5. Narshaxiy M., "Buxoro tarixi". Toshkent: Adolat, 1995. B. 35.
6. Ремпел Л.И., "Архитектурный орнамент Узбекистана". Т.; 1961 й. Б. 85.
7. Салимов Т., "Нурота ва нуротиликлар". Тошкент: Университет, 2019. Б. 81.
8. Сайфуллаев Б., "Жиззах вахасининг палеолит даври топиламалари". ЎзРФА Археологик тадқиқотлар институти, Самарканд. Б. 6-7.
9. Тогаев З.Т., "Из истории хозяйственно-бытовой жизни таджиков Нуратинского оазиса". Тогаев Зокир Тилавович. Навои, 2024. С. 48.
10. Togaev Z., The history of the social and cultural life of the Tajiks of the Nurota Oasis // World Bulletin of Social Sciences, 5, December 2021. Available at: <https://www.scholarexpress.net>.
11. Mojrumda ochiq osmon ostidagi muzey tashkil etiladi – Xalq so'zi. <https://xs.uz/uzkr/122609>.
12. Dala yozuvlari, Forish tumani 2023-yil. ALM – 202403110244-sonli "Tarixiy obyektlari va tabiiy maskanlar uyg'unligi asosida Forish tumani turistik salohiyatini oshirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarildi.